



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,  
368 sahifa, iyun, 2025-yil.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afarovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- |  |  |
|--|--|
| <p>05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi</p> <p>05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari</p> <p>05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash</p> <p>05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari</p> <p>05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti</p> <p>05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi</p> <p>05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari</p> <p>05.01.07 – Matematik modellashtirish</p> <p>05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt</p> <p>05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik</p> <p>05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari</p> <p>05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti</p> <p>05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash</p> <p>05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi</p> <p>05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari</p> <p>05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari</p> <p>05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi</p> | <p>05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish</p> <p>05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar</p> <p>05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari</p> <p>10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik</p> <p>10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti</p> <p>08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi</p> <p>08.00.02 – Makroiqtisodiyot</p> <p>08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti</p> <p>08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti</p> <p>08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti</p> <p>08.00.06 – Ekonometrika va statistika</p> <p>08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit</p> <p>08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit</p> <p>08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti</p> <p>08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti</p> <p>08.00.11 – Marketing</p> <p>08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot</p> <p>08.00.13 – Menejment</p> <p>08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari</p> <p>08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti</p> <p>08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya</p> <p>08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati</p> |
|--|--|

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan .....	12
<b>Isakov Janabay Yakypbayevich</b>	
Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash.....	18
<b>Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B</b>	
Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market .....	23
<b>Aytmuratova Ulbike Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova</b>	
O'zbekistonda eksportni sug'urtalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari .....	29
<b>D.E.Qarshiev</b>	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston .....	35
<b>Islomova Dilrabo Salomovna</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli .....	40
<b>Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich</b>	
Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития .....	47
<b>Алиев Абдор Мураткулович</b>	
The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration .....	52
<b>Dilorom Mutalova</b>	
Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli .....	57
<b>Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li</b>	
Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar.....	62
<b>Jalilov Ahmadbek Ikromjon o'g'li</b>	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida .....	66
<b>Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich</b>	
The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing .....	73
<b>Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna</b>	
Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties .....	80
<b>Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna</b>	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari .....	85
<b>Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li</b>	
Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo'jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish.....	89
<b>Fazilat Egamberganova Shuhratovna</b>	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish .....	93
<b>Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li</b>	
Qurilish sanoati korxonalarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari .....	98
<b>Yembergenova Aynur Aydosbaevna</b>	
Mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari .....	104
<b>Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich</b>	
Sirdaryo viloyatida investitsion faollikni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi .....	110
<b>Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi</b>	



Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari .....	115
<b>Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li</b>	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari xususida .....	118
<b>Abdusherozov Abdullo Baxtiyrovich</b>	
Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari .....	125
<b>Yaqubova Nodira Olim qizi</b>	
O'zbekistonda to'qimachilik eko-mahsulotlari bozorining rivojlanish imkoniyatlari .....	130
<b>Nosirova Charos</b>	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni .....	135
<b>Asadullina Nailya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li</b>	
Axoli daromadlarining turmush farovonligiga ta'siri .....	142
<b>Berdibekov A.</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitda ta'lim xizmati sifatini oshirishni ekonometrik modellashtirish usullari .....	148
<b>Axmedova Barno Abdiyevna</b>	
Jahon mamlakatlarida chakana savdoni boshqarishning o'ziga xosligi va unda strategik menejment tizimi .....	151
<b>Yaqubov Azizbek G'anibekovich</b>	
Kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari .....	156
<b>Amonov Mehridin Oromiddinovich</b>	
Geologiya korxonalarining investitsion samaradorligini oshirish yo'llari .....	163
<b>O'tamurodova Surayyo SHokirjon qizi</b>	
Temir yo'l transportini rivojlantirishdagi xorij tajribasi .....	169
<b>Nasrullayev Nurbek Baxtiyrovich</b>	
Hududlar iqtisodiyoti agrar sektori investitsion faolligining ko'rsatkichlar tizimi va ularning xususiyatlari ....	174
<b>S.J. Yangiboev</b>	
Hududlarning soliq salohiyatini oshirishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari .....	181
<b>Sharipov Narzullo G'ulomovich</b>	
Uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish .....	188
<b>Bakayev Xurshid Maxmudovich</b>	
Применение искусственного интеллекта в оценке кредитных рисков.....	195
<b>Маликов Шохрух Шокирович, Неъматова Фарангиз Санжар кизи, Омонов Санжар Ғанишер ўғли, Гулмуродова Динора Акрам кизи, Камалов Шухрат Камалович</b>	
Tashqi bozorlarda tovarlarning raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy marketingdan foydalanish ...	209
<b>Meliqulov Abduhalil Norinovich</b>	
Tijorat banklari investitsiya faoliyatida yuzaga keluvchi risklar .....	215
<b>Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li</b>	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda xalqaro savdo shartnomalarining roli.....	219
<b>Xodjayev Jamshid Abduxakimovich</b>	
Servislashgan jamiyatda avtoservis xizmatlarining o'rni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar .....	223
<b>Shaymardanova Dildora Xaydarjon qizi</b>	
Davlat budjetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi o'rni .....	230
<b>Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li</b>	
Madaniy festivallar-turizmni rivojlantirish vositasi sifatida .....	234
<b>Xushnazarova Maxzuna Gulamdjanovna</b>	
Xizmatlar sohasida innovatsion strategiyani shakllantirishning o'ziga xos jihatlari .....	239
<b>Jamshid Abduxaliqovich Xolboyev</b>	



Innovatsion tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi o'рни .....	244
<b>Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich</b>	
Managing Tourism in Fragile Ecosystems: A Case Study Approach .....	251
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova	
Development of the Digital Financial Assets Market to Enhance Investment Activity .....	258
<b>Shamshinur Yakubova</b>	
Turizm sohasining investitsion jozibadorligi va uni oshirish yo'llari .....	263
<b>Ayubov Ilyos Iloxomovich</b>	
Qimmatli qog'ozlar bozorida risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish .....	268
<b>Otaxonov Saidaxror Ilhomjon o'g'li</b>	
O'zbekiston hududlarining barqaror rivojlanishi: omillar va ko'rsatkichlar tahlili .....	274
<b>Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich</b>	
Iqtisodchi va bugalterlarning jamiyatdagi o' rni va ahamiyati .....	282
<b>Sohibova A'loxon Zafarjon qizi</b>	
Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni raqamli kompetensiyasini baholashning metodologik asoslari ..	286
<b>Maxkamova Zuxra Tursunpulotovna</b>	
Sug'urta faoliyati hisobining normativ-huquqiy asoslari .....	292
<b>Kodirkulov Oybek Turdiboyevich</b>	
Raqamli iqtisodiyot: qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish va joylashtirish .....	301
<b>Bazarov Nazirjon Sobirovich, Mo'minov Baxodir Orifjonovich</b>	
Sport maktablaridagi yoqari sinf o'quvchilarining chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati .....	306
<b>Qon'irbayev Dastan</b>	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане .....	311
<b>Салимов Шерзод Бахтиёрвич</b>	
Cleaning of Salt Water Using Reverse Osmosis .....	316
<b>Kungiratbay Sharipov, Nurmanov Ma'ruf</b>	
Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy instrumentlar auditi uchun tavakkalchilikka asoslangan baholash mezonlarini takomillashtirish .....	326
<b>Nuraliyev Behzod Baxtiyor o'g'li</b>	
Turizm investitsion salohiyatiga ta'sir kuchlari va ularga yechim .....	331
<b>Ayubov Ilyos Iloxomovich</b>	
Korxonalarda nomoddiy aktivlarni hisobga olishda shaffoflikni ta'minlash va xorij tajribalaridan foydalanish istiqbollari .....	335
<b>Rizakulov Abdurauf Abdimutalibovich</b>	
Strengthening the Tourism Industry Through Education and Training: A Review of Global and Regional Strategies .....	342
<b>G'aforova Zarina Otabek qizi</b>	
Raqamli iqtisodiyotda telekommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanish omillari va iqtisodiy samaradorligi tahlili (o'zbekiston misolida) .....	348
<b>Xazratov Abror Panjiyevich</b>	
Smart tourism konsepsiyasining o'zbekistonda joriy etilishi: infratuzilma, xizmatlar va raqamli innovatsiyalar tahlili .....	352
<b>Abriev Zoirjon</b>	
The Development of Tourism Management as a Significant Part of Economy in Uzbekistan .....	358
<b>To'xtarova Feruzahon Yuldashevna</b>	
Biologik aktivlarni iqtisodiy tahlil qilish turlari: metodologiyasi va amaliy qo'llanilishi .....	362
<b>Ziyayev Dilshodjon Salimjonovich</b>	

# BIOLOGIK AKTIVLARNI IQTISODIY TAHLIL QILISH TURLARI: METODOLOGIYASI VA AMALIY QO‘LLANILISHI

**Ziyayev Dilshodjon Salimjonovich,**

FDTU tadqiqotchisi,



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada biologik aktivlarning iqtisodiy tahlil turlari tizimlashtirilib, ularning metodologik asoslari va amaliy qo‘llanilishi yoritilgan. Moliyaviy, investitsion, boshqaruv, strategik va risk tahlillari orqali biologik aktivlardan samarali foydalanish, ularning qiymatini baholash hamda investitsion qarorlar qabul qilish yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** biologik aktivlar, iqtisodiy tahlil, moliyaviy tahlil, investitsion baholash, risklarni boshqarish.

**Abstract:** This article systematizes types of economic analysis of biological assets, highlighting their methodological foundations and practical application. It examines the directions of effective use, valuation of biological assets, and investment decision-making based on financial, investment, managerial, strategic, and risk analyses.

**Keywords:** biological assets, economic analysis, financial analysis, investment valuation, risk management.

**Аннотация:** В данной статье систематизированы виды экономического анализа биологических активов, освещены их методологические основы и практическое применение. Рассматриваются направления эффективного использования, оценки стоимости биологических активов, а также принятия инвестиционных решений на основе финансового, инвестиционного, управленческого, стратегического и риск-анализа.

**Ключевые слова:** Ключевые слова: биологические активы, экономический анализ, финансовый анализ, инвестиционная оценка, управление рисками.

## KIRISH

Biologik aktivlar (BA) — tirik hayvonlar va o‘simliklar — agrosanoat kompleksi, o‘rmon xo‘jaligi, suv xo‘jaligi hamda jahon iqtisodiyotining boshqa ko‘plab tarmoqlarining asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi. Ularning o‘ziga xos tabiati, ya‘ni biotransformatsiya qilish qobiliyati, tabiiy sharoitlarga bog‘liqligi, uzoq o‘stirish sikllari — baholash va iqtisodiy tahlil qilishda sezilarli qiyinchiliklar tug‘diradi. Bunday aktivlarga ega bo‘lgan korxonalarni samarali boshqarish esa ularning iqtisodiy xususiyatlarini, qiymatini va rentabelligiga ta‘sir qiluvchi omillarni chuqur tahlil qilish zaruratini keltirib chiqaradi.

IAS 41 “Qishloq xo‘jaligi” xalqaro buxgalteriya hisobi standarti qishloq xo‘jaligi aktivlarini tan olish, o‘lchash va oshkor qilish bo‘yicha talablarni belgilaydi. Unga ko‘ra, biologik aktivlar sotish xarajatlari chegirib tashlangan holda adolatli qiymatda baholanadi. Biroq mazkur standart boshqaruv qarorlarini qabul qilish, investitsiyalarni baholash va strategik rejalashtirish uchun zarur bo‘lgan har tomonlama iqtisodiy tahlilni to‘liq ta‘minlay olmaydi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Biologik aktivlarni iqtisodiy tahlil qilish masalasi ko‘plab ilmiy va amaliy manbalarda yoritilgan. IFRS 41 – Agriculture (IASB, 2022) standarti biologik aktivlarni adolatli qiymatda baholash tamoyillarini belgilaydi. Ushbu yondashuv, ayniqsa, faol bozor mavjud bo‘lmagan hollarda subyektiv prognozlariga tayanadi.

Mahalliy adabiyotlarda Haydarova N.K. (2021) biologik aktivlarni hisobga olish va baholash usullarini ko‘rib chiqib, qiyosiy, daromad va tannarx yondashuvlarini tahlil qiladi. O‘zbekiston Moliya vazirligi (2023) esa amaliy tavsiyalar orqali buxgalteriya hisobini milliy sharoitlarga moslashtirishga e‘tibor qaratgan.

Mirzayev A. (2017), Islomov M.T. (2019) va boshqalar chorvachilikdagi innovatsion usullar, sog‘lomlashirish va oziqlantirish samaradorligining iqtisodiy ta‘sirini yoritgan. Bu esa tahlilda agrotexnik va veterinariya ma‘lumotlarini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Teshabaeva O.N., Ziyayev D.S. (2023) va Salimjonovich Z.D. (2023) xalqaro standartlarga o‘tish jaray-



onida aktivlarning qadrsizlanishini va hisob yuritishdagi yondashuvlarni tahlil qilgan.

Umuman, adabiyotlar biologik aktivlar bo'yicha ko'p qirrali iqtisodiy tahlil — moliyaviy, investitsion, operatsion va xavf yondashuvlarini birlashtirish zarurligini asoslaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Biologik aktivlarning iqtisodiy tahlili ularning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirilgan keng qamrovli uslubiy yondashuvlarga asoslanadi. Asosiy tahlil guruhlarini quyidagilardan iborat: moliyaviy tahlil, investitsion tahlil, operatsion (boshqaruv) tahlil, strategik tahlil, xavf (risk) tahlili va boshqalar.

Moliyaviy tahlil daromadlilik tahlili va aktivlar aylanmasi tahliliga bo'linadi. Bu yerda aktivlarning adolatli qiymati va u orqali olinadigan daromad (sut, nasl, hosil, biomassa o'sishi) hisobga olinadi. Aktivlar aylanmasi tahlilida biologik aktivlarning tayyor mahsulot yoki naqd pulga aylantirilish tezligi baholanadi.

Xarajatlar tahlilida biologik aktivlarni ko'paytirish va parvarish qilish bilan bog'liq batafsil xarajatlar tahlil qilinadi. Muhim jihatlar quyidagilardan iborat:

xarajatlarni kapitallashtirilgan (aktiv qiymatini oshiruvchi) va joriy (operatsion) xarajatlarga ajratish, mahsulot birligi tannarxini hisoblash (masalan, bir litr sut, bir tsentner vazn ortishi, bir kubometr yog'och), xarajatlar tarkibini (ozuqa, veterinariya xizmatlari, mehnat, yoqilg'i-moylash materiallari, infratuzilma amortizatsiyasi) tahlil qilish.

Pul oqimi tahlili esa aktivning hayotiy tsikli bo'yicha (investitsiyalar, operatsion xarajatlar, sotishdan tushgan daromadlar) pul oqimini prognozlashga yo'naltirilgan. Bu tahlil yangi bog'lar, podalar yoki plantatsiyalarga investitsiya kiritish samaradorligini baholashda qo'llaniladi.

Investitsion tahlil quyidagilarga bo'linadi:

biologik aktivlar xarajatlarini baholash,  
investitsion ko'rsatkichlarni hisoblash,  
sezuvchanlik tahlili va ssenariy tahlili.

Baholash usullari sifatida qiyosiy, daromad va tannarx yondashuvlari qo'llanadi. IFRS 41 talablari va aktivlarning xususiyatlari hisobga olinadi. Prognoz qilinadigan kelajakdagi pul oqimlari va sektor xavflariga mos ravishda diskont stavkalari aniqlanadi.

Sezuvchanlik va ssenariy tahlillari esa investitsion jozibadorlikka ta'sir qiluvchi omillar — mahsulot narxi, rentabellik, xarajatlar, diskont stavkalari — bo'yicha baho beradi.

Operatsion (boshqaruv) tahlil resurslardan foydalanish samaradorligini tahlil qiladi. Ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

bir sigirdan olinadigan sut,  
o'rtacha sutkalik daromad,  
gektardan olinadigan hosil,  
ozuqa qayta ishlash koeffitsienti,  
yerdan foydalanish samaradorligi.

Byudjetlashtirish va nazorat tahlili — operatsion byudjetlar (yosh hayvon/ko'chatlar, ozuqa, o'g'it, himoya vositalari, veterinariya, sotuv) ishlab chiqilishi bilan bog'liq.

Zararsizlanish nuqtasi tahlili — barcha doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarni qoplash uchun zarur bo'lgan mahsulot hajmini aniqlaydi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Biologik aktivlar bo'yicha yuqorida ta'riflangan iqtisodiy tahlil usullari quyidagi asosiy xulosalarni olish imkonini beradi:

Turli turdagi biologik aktivlar (chorva, plantatsiyalar, o'rmonlar) rentabelligi aniq baholanadi; samarali va samarasiz aktivlar aniqlanadi.

Eng katta ta'sirga ega bo'lgan omillar (hosildorlik, narx, tannarx) aniqlanadi. (Masalan, 1-jadvalda sut podasi qiymati sezuvchanlik tahliliga ko'ra baholangan.)

Xarajatlar tarkibi va resurslar samaradorligi tahlili asosida xarajatlarni kamaytirish va mahsuldorlikni oshirish zaxiralari aniqlanadi.

NPV, IRR va boshqa investitsion ko'rsatkichlar asosida ko'p yillik loyihalar (chorva sonini oshirish, daraxt ekish, texnologik modernizatsiya) uchun qarorlar qabul qilinadi.

Xavflarni tizimlashtirish orqali sug'urta, narx xavfsizligi va favqulodda holatlarga qarshi choralar (epizootik kasalliklar, tabiiy ofatlar) ishlab chiqiladi.

Ichki va tashqi muhit tahlili orqali bozor bo'shliqlari, diversifikatsiya, vertikal integratsiya va raqobatbardosh ustunliklar aniqlanadi.

IFRS 41 hisobotlarini to'ldiruvchi tahliliy natijalar investorlar va kreditorlarga kompaniya qiymati haqida mukammal tasavvur beradi. (1-jadval)

**1-jadval:** Sut beruvchi biologik aktivlarning adolatli qiymatining sezgirlik tahliliga misol

Ta'sir etuvchi omil	Asosiy qiymat	Burilish (-10%)	O'zgarishi, %	Og'ish (+10%)	O'zgarishi, %	Sezuvchanlik
Sut narxi, summ/l	5000	4500	-18%	5500	+15%	yuqori
Bir sigirga sut, l/yil	8000	7200	-12%	8800	+10%	yuqori
Ozuqa xarajatlari, summ/bosh	60 000	66 000	-8%	54 000	+7%	o'rtacha
Chegirma stavkasi	12%	13%	-5%	11%	+4%	past

Biologik aktivlarni iqtisodiy tahlil qilish natijalari yuqori darajadagi amaliy ahamiyatga ega, biroq bu natijalarni izohlashda tarmoqning o'ziga xos xususiyatlari va uslubiy yondashuvlarni hisobga olish zarur.

IFRSga muvofiq, biologik aktivlarni baholashda asosiy usul adolatli qiymat hisoblanadi. Tahlilning sifati bevosita bu qiymatni aniqlashdagi ishonchlilik darajasiga bog'liq. Faol bozorlarda (masalan, ba'zi donlar yoki chorva mollari boqish) baholash nisbatan ishonchli bo'lsa-da, ko'plab biologik aktivlar (uzoq muddatli ko'chatlar, naschilik hayvonlari, etuk o'rmonlar) bo'yicha baholash prognozlarning subyektivligi (narx, hosildorlik, xarajatlar, chegirma stavkalari) bilan bog'liq bo'ladi. Bunday holatlarda taxminlar sinchkovlik bilan asoslanishi va sezuvchanlik tahlili o'tkazilishi shart.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari va ularning narxlari ob-havo sharoiti, jahon bozori talabi va taklifi, hamda davlat siyosati omillariga kuchli darajada bog'liqdir. Shu sababli, bir davrda o'tkazilgan rentabellik va investitsion jozibadorlik tahlilining natijalari boshqa davrda keskin o'zgarishi mumkin. Ushbu holatlarni hisobga olgan holda, uzoq muddatli tendensiyalar va ssenariy rejalashtirish usullaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ko'pgina biologik aktivlar (bog'lar, uzumzorlar, o'rmonlar, naschilik mollar) bo'yicha investitsiyalar uzoq muddatli, ya'ni 5–10 yil yoki undan ortiq vaqt mobaynida o'zini oqlaydi. Bu esa tahlilni uzoq muddatli yondashuvda olib borishni talab qiladi.

Biologik aktivlar xarajatlarining katta qismi (masalan, ozuqa, o'g'it, mehnat) biotransformatsiya (o'sish, mahsulot ishlab chiqarish) jarayoniga yo'naltiriladi. Ularning iqtisodiy samaradorligi (ozuqani aylantirish, hosildorlik darajasi) rentabellikning hal qiluvchi omili hisoblanadi. Shu bois, ushbu xarajatlar tarkibi va dinamikasini tahlil qilish iqtisodiy tahlilning asosiy vazifasidir.

Biologik aktivlarning mahsuldorligi va narxi ko'p jihatdan hayvonlar va o'simliklarning sog'lig'i, genetik potentsiali, tuproq unumdorligi va iqlim sharoitlariga bog'liq. Iqtisodiy tahlil zootexnika, agrotexnika va o'rmon xo'jaligi monitoringi ma'lumotlarini birlashtirishi zarur. Shuningdek, tahlil modellari tarkibida kasalliklar va noqulay ob-havo sharoitlaridan yo'qotish xavfi ham hisobga olinishi kerak.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Biologik aktivlar agrosanoat va o'rmon xo'jaligi komplekslarining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ularni iqtisodiy tahlil qilish murakkab va o'ziga xos yondashuvni talab etadi. Bunday tahlil jarayoni ko'plab uslubiy muammolar bilan bog'liq bo'lib, ular orasida adolatli qiymatning ishonchlilik, bozor sharoitlarining o'zgaruvchanligi, ishlab chiqarish tsiklining uzoq muddatli bo'lishi, shuningdek, biologik va tabiiy omillarning yuqori ta'siri mavjud. Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun taxminlarni sinchkovlik bilan asoslash, ssenariy yondashuvlaridan foydalanish, sezuvchanlik tahlilini qo'llash hamda moliyaviy, operatsion va agrotexnik/zootexnik ma'lumotlarni o'zaro integratsiyalash zarur bo'ladi. Mazkur yondashuvlar asosida amalga oshirilgan tahlil natijalari yuqori amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ular operatsion faoliyatni optimallashtirish, strategik rejalashtirish va investitsiyalarni jalb qilishda asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Biologik aktivlarni iqtisodiy tahlil qilish metodologiyasining yanada takomillashuvi ekologik va ijtimoiy omillarni chuqur integratsiyalash, aniq qishloq xo'jaligi va chorvachilik faoliyatiga asoslangan bashoratli modellarni ishlab chiqish, shuningdek, kam likvidli aktivlarning adolatli qiymatini aniqlash yondashuvlarini rivojlantirish orqali ifodalaniadi. Shu boisdan biologik aktivlarning iqtisodiy tahlili nafaqat moliyaviy natijalarni yaxshilash vositasi sifatida, balki global muammolar sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va qishloq xo'jaligi sohasining barqaror rivojlanishi uchun zaruriy omil sifatida ko'riladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. International Accounting Standards Board (IASB). IFRS 41 – Agriculture. – London: IFRS Foundation, 2022. – 36 b.
2. Фоминых М. С. Бухгалтерский учет биологических активов. – М.: Финансы и статистика, 2018. – 128 с.



3. Haydarova N. K. Qishloq xo'jaligi korxonalarida biologik aktivlar hisobi va baholash usullari // Ilmiy-amaliy moliya jurnali. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. – № 3. – B. 56–61.
4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Biologik aktivlar hisobini yuritish bo'yicha metodik tavsiyalar. – Toshkent: Respublika buxgalterlar va auditorlar tayyorlash markazi, 2023. – 24 b.
5. Mirzayev A. (2017). Chorvachilikda innovatsiyalar va yangi texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
6. Yo'ldoshev N. (2016). Chorvachilik va buzoqlarni parvarishlashda veterinariya xizmatlari. Toshkent: O'zbekiston Qishloq xo'jaligi instituti.
7. Islomov M. T. (2019). Qoramolchilik va buzoqlarni intensiv usullarda boqish. Toshkent: O'zbekiston Qishloq xo'jaligi akademiyasi nashriyoti.
8. Tursunov Sh. A. (2021). Chorvachilikda oziqlantirish va buzoqlarni to'g'ri parvarish qilish. Toshkent: Qishloq xo'jaligi nashriyoti.
9. Teshabaeva O. N., & Ziyayev D. S. (2023). Mamlakatimizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan aktivlarning qadrsizlanishini hisobini yuritish masalalari // Scientific Progress, 4(4), 342–350.
10. Salimjonovich Z. D. (2023). Analysis of methods of accounting for fixed assets according to international standards of financial reporting // Modern Educational System and Innovative Teaching Solutions, 6(6), 34–37.
11. Holmatov B. A., & Ziyayev D. S. (2022). Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlar (MHXS) ni mamlakatimizda joriy etishning bugungi kundagi dolzarbligi va ahamiyati // Innovation in the Modern Education System, Washington, USA. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6578393>
12. Abdumutalovich K. B., & Salimjonovich Z. D. (2022). Reduction of population poverty through the development of the services sector // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(2), 645–647.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)